

GEOGRAFIYA TA'LIMI METODLARI: O'QITISHNING OG'ZAKI METODLARI, KUZATISH VA TAJRIBA METODLARI

Abduhalimova Dilbar Zokir qizi

Buxoro Davlat Pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti

4-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada geografiya fanini o'qitishda qo'llaniladigan asosiy metodlar, xususan, o'qitishning og'zaki metodlari, kuzatish va tajriba metodlarining mazmuni, mohiyati hamda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, geografik tafakkurni shakllantirishda og'zaki bayon, suhbat, ma'ruza, hikoya, tushuntirish, kuzatish va tajriba metodlarining didaktik imkoniyatlari ilmiy tahlil qilinadi. Maqola davomida zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida metodlarni takomillashtirish yo'llari va ularning o'quv jarayonidagi o'rni haqida fikr yuritiladi. Bundan tashqari ushbu maqolada geografiya ta'limini o'qitishda foydalaniladigan mavzu doirasidagi metodlar, ekspeditsiya, statsionar, qiyoslash metodlari turlicha nazariyalar asosida yoritib beriladi.*

Kalit so'zlar: *Geografiya ta'limi, metod, og'zaki metodlar, kuzatish, tajriba, ma'ruza, suhbat, tushuntirish, ilmiy tahlil, kompetensiya, ko'nikma, o'quv faoliyati, pedagogik texnologiya, didaktika, ekspeditsiya, statsionar, qiyoslash, zamonaviy texnologiyalar.*

Abstract: *This article discusses the main methods used in teaching geography, in particular, the content, essence of oral teaching methods, observation and experimental methods, and their importance in developing students' knowledge, skills and competencies. Also, the didactic possibilities of oral presentation, conversation, lecture, story, explanation, observation and experimental methods in the formation of geographical thinking are scientifically analyzed. The article discusses ways to improve methods based on modern pedagogical technologies and their role in the educational process. In addition, this article discusses the methods used in teaching geography within the framework of the subject, expedition, stationary, comparative methods, based on various theories.*

Keywords: *Geography education, method, oral methods, observation, experiment, lecture, conversation, explanation, scientific analysis, competence, skills, educational activity, pedagogical technology, didactics, expedition, stationary, comparison, modern technologies.*

Аннотация: *В статье рассматриваются основные методы обучения географии, в частности, содержание и сущность методов устного обучения, наблюдения и*

экспериментального метода, их значение в развитии знаний, умений и компетенций учащихся. Также научно анализируются дидактические возможности методов устного изложения, беседы, лекции, рассказа, объяснения, наблюдения и экспериментального метода в формировании географического мышления. В статье рассматриваются пути совершенствования методов на основе современных педагогических технологий и их роль в образовательном процессе. Кроме того, в статье рассматриваются методы обучения географии в рамках предметного, экспедиционного, стационарного, сравнительного методов, основанных на различных теориях.

Ключевые слова: Географическое образование, метод, устные методы, наблюдение, эксперимент, лекция, беседа, объяснение, научный анализ, компетентность, умения, учебная деятельность, педагогическая технология, дидактика, экспедиция, стационарный, сравнение, современные технологии.

Geografiya ta'limida metodlar — bu o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularni tabiat va jamiyat haqidagi ilmiy qarashlar asosida tarbiyalashga xizmat qiluvchi vositalardir. Geografik tadqiqot metodlari — geografiya fanlari predmetini bilishning uslub va usullari majmuasi. Geografik tadqiqot metodlari yordamida turli xil geografik ma'lumotlarni adabiyotlardan va bevosita dala sharoitida tadqiqot jarayonida to'plab tahlil qilinadi hamda ulardan fanning metodologiyasini yaratish, nazariy -ilmiy va amaliy maqsadlarda foydalanish yo'l-yo'riqlari aniklanadi. Geografik tadqiqot metodlari ilm-fan taraqqiyotini (ta'limot va g'oyalarni) ta'minlaydigan, tadqiqotchining maqsad va vazifalarini maqsadli yo'nalishda amalga oshiradigan eng muhim tadbir. Geografik tadqiqot metodlari ikki yo'nalishda — tabiiy va yqtisodiy geografik tadqiqot metodlari bilan olib boriladi: Tabiiy geografik metodlar — tabiatda sodir bo'ladigan narsa va hodisalarni, tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni ilmiy bilishda qo'llaniladigan usullar majmuidir. Asosiy metodlari: ekspeditsiya, statsionar, kuzatish, qiyoslash, haritagrafik, aerofotografik, kosmik, matematik, rayonlashtirish va hokazo. Ushbu metodlar yordamida asosan geografik majmua va komponentlar hamda geografik muhit tadqiq etiladi. Iqtisodiy geografik metodlar — jamiyatda sodir bo'ladigan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlarni namoyon qilishda qo'llaniladigan usullar majmuidir. Asosiy metodlari: statistik ma'lumotlar tahlili, haritagrafik, konstruktiv, modellashtirish, majmua, kuzatish va hokazo. Mazkur metodlar yordamida xo'jalik tarmoqlarini oqilona hududiy tashkil etish va ularni joylashtirish, kishilarning qulay yashash sharoitlarini barpo etish, ishlab chiqarish sohasida iqtisodiy samaradorlikni oshirish chora va tadbirlarini taklif etish kabi mas'ala (muammo)lar yechiladi.

Geografiya asoslarini puxta o'zlashtirish, o'quvchilarning bilim olish qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni xayotga tayyorlash ma'lum darajada ta'lim metodlariga bog'liq. Ta'lim metodlari – o'qituvchi tomonidan o'quvchilar faoliyatini belgilaydigan ish usullaridir. Ta'lim metodlari o'quvchilarga bilim berish, ko'nikma va malakalarni egallash bilangina cheklanib qolmaydi. Ta'lim metodlari deyilganda, o'quvchilarning ijodiy faoliyatlarini rivojlantiragan, bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga o'rgatadigan, ularda ilmiy bilimga asoslangan to'g'ri dunyoqarashi va e'tiqodini tarbiyalaydigan usullar tushuniladi. Geografiya ta'limi metodlarini klassifikatsiyalashda ham ba'zi mualliflarda ayrim noaniqliklar uchraydi. Bazi mualliflar “metod” deb mantiqiy yo'lni nazarda tutadilar. Masalan, dogmatik metod - bunda yangi ma'lumotlarni o'quvchilarga o'qituvchilar o'zi bayon etadi; illyustratsiya metodida - bunda rasm, ko'rsatmali qo'llanmalar ko'rsatiladi; evristik metod o'qituvchining yordamchi Blits so'rovi bilan o'quvchining o'zi fakt va hodisalarni aniqlaydi; tadqiqot metodi - bunda o'quvchilar bilim yoki ma'lumotlarni mustaqil o'rganadilar.

Geografiya ta'limi o'quvchilarga nafaqat tabiiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ham o'rgatadi. Shu sababli geografiyani samarali o'qitish uchun o'qituvchi turli metodlardan oqilona foydalanishi zarur. Metod — bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonini tashkil etuvchi, bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish vositasidir.

Geografiya darslarida o'qitishning og'zaki metodlari, kuzatish va tajriba metodlari o'quvchilarda dunyoqarashni kengaytiradi, tahliliy fikrlashni, tabiat hodisalarini tushunish va izohlash qobiliyatini rivojlantiradi. Ayniqsa, tajriba va kuzatish metodlari orqali o'quvchilar real voqelikni bevosita idrok etish imkoniga ega bo'ladi.

Geografiya ta'limida metodlar didaktik maqsadga ko'ra quyidagicha tasniflanadi:

- Og'zaki metodlar (ma'ruza, hikoya, tushuntirish, suhbat);
- Ko'rgazmali metodlar (xarita, chizma, maket, videomateriallar bilan ishlash);
- Amaliy metodlar (tajriba, mashq, amaliy topshiriq);
- Kuzatish metodlari (tabiat hodisalarini real vaqt rejimida kuzatish);
- Muammoli, interaktiv va innovatsion metodlar (klaster, “Aqliy hujum”, debat, loyiha ishlari va boshqalar).

Bu metodlar o'quv jarayonida bir-birini to'ldiradi va integratsiyalashgan holda qo'llanilganda yuqori samaraga erishiladi.

Og'zaki metodlar o'qituvchi nutqi orqali o'quvchilarga yangi bilimlarni yetkazish, mavzuni bayon qilish, ularning fikrlash jarayonini yo'naltirish va faollashtirishga xizmat qiladi. Unga quyidagi shakllar kiradi:

- Ma'ruza — ilmiy ma'lumotlarni tizimli tarzda bayon etish shakli bo'lib, o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni kengaytiradi.
- Hikoya — yangi geografik voqealarni badiiy ifoda orqali tushuntirish usuli. U ko'proq boshlang'ich va o'rta sinf o'quvchilari uchun mos keladi.
- Tushuntirish — murakkab tushunchalar, jarayon va qonuniyatlarni oddiy, tushunarli shaklda izohlash.
- Suhbat (savol-javob) — o'quvchini faol o'ylashga, mustaqil xulosa chiqarishga undaydi.

Og'zaki metodlar yordamida o'quvchilar nafaqat tayyor bilimlarni eslab qoladilar, balki ularni tahlil qiladi, turli geografik hodisalar o'rtasidagi sabab-oqibat aloqalarini anglaydilar. Og'zaki metodlar — ma'ruza, hikoya, tushuntirish va suhbat — o'quvchining bilim olish jarayonida o'qituvchi nutqining ta'sir kuchini oshiradi. Bu metodlar o'quvchiga tayyor bilimni emas, balki ularni anglash, tahlil qilish va o'z fikrini bayon etish imkoniyatini yaratadi. Shu orqali o'quvchi mustaqil fikrlovchi, o'z nuqtai nazariga ega shaxs sifatida shakllanadi.

Kuzatish metodi geografiya ta'limining eng muhim amaliy shakllaridan biridir. Bu metod o'quvchining bevosita tabiat hodisalarini idrok etishiga, o'z ko'zi bilan kuzatgan ma'lumotlarni tahlil qilishiga asoslanadi. Kuzatish: tabiatdagi o'zgarishlarni muntazam o'rganishga; meteorologik hodisalarni qayd etishga; gidrologik va geomorfologik jarayonlarni tushunishga; ekologik muammolarni amalda ko'rishga yordam beradi. Masalan, o'quvchilar "Ob-havo holatini kuzatish", "Daryo oqimini o'lchash", "Tuproq tahlili" kabi amaliy mashg'ulotlar orqali o'z kuzatuvlarini ilmiy tahlil qilishga o'rganadilar. Kuzatish metodi o'quvchini real voqelik bilan bevosita tanishtiradi. U tabiat hodisalarini o'z ko'zi bilan kuzatadi, o'z xulosalarini chiqaradi va ilmiy tahlil qilishga o'rganadi. Bu metod o'quvchilarda tabiatga ongli munosabatni, ekologik madaniyatni va kuzatuvchanlik qobiliyatini rivojlantiradi. Tabiatni muntazam kuzatish, meteorologik o'lchovlar olib borish, joyda o'rganish (dala mashg'ulotlari) o'quvchilarning qiziqishini kuchaytiradi va nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'laydi.

Tajriba metodi — bu geografik jarayonlar va hodisalarni maxsus sharoitda o'rganish orqali ularning mohiyatini aniqlashdir. Tajriba darslari o'quvchilarda mustaqil tadqiqotchilik qobiliyatini shakllantiradi. Geografiya fanida tajriba quyidagi yo'nalishlarda qo'llaniladi: suv, havo, tuproq xususiyatlarini o'rganish; issiqlik almashinuvi, bug'lanish, suv aylanishi jarayonlarini amalda ko'rsatish; ekologik ifloslanish darajasini aniqlash; laboratoriya o'lchovlari orqali tabiiy jarayonlarni tahlil qilish. Tajriba orqali o'quvchilar o'z bilimlarini amalda sinab ko'rish, nazariy tushunchalarni real faktlar bilan bog'lash imkoniga ega bo'ladi. Tajriba (eksperiment) metodi esa geografiya fanining ilmiylik darajasini

osHIRadi. O'quvchi turli tajribalar orqali ilmiy qonuniyatlarni o'z ko'zi bilan ko'radi, ularni tahlil qiladi va sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlaydi. Bu metod o'quvchilarda izlanish ruhi, amaliy fikrlash, sinovdan o'tkazish, kuzatish va ilmiy xulosa chiqarish kompetensiyalarini shakllantiradi. Tajriba orqali o'quvchi tabiat hodisalarini chuqurroq anglaydi, ularning mohiyatini tushunadi va ilmiy yondashuvni o'zlashtiradi.

Zamonaviy o'qitish texnologiyalari (interaktiv doskalar, GIS texnologiyalari, virtual laboratoriyalar, 3D modellar) geografiya ta'limida og'zaki, kuzatish va tajriba metodlarini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Masalan: Virtual tajribalar o'quvchiga xavfsiz muhitda tabiiy jarayonlarni sinovdan o'tkazish imkonini beradi; Onlayn xaritalar (Google Earth, ArcGIS) orqali kuzatuvlar interfaol tarzda olib boriladi; Multimedia prezentatsiyalar og'zaki bayon jarayonini boyitadi. Bu vositalar o'quvchilarda faollik, mustaqillik va ijodkorlikni rivojlantiradi. Zamonaviy geografiya ta'limida bu metodlarning qo'llanilishi innovatsion texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda yanada samarali natija beradi.

Xulosa qilib aytganda, Geografiya ta'limida metodlarning to'g'ri tanlanishi va ularni maqsadga muvofiq qo'llash o'quv jarayonining samaradorligini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. Har bir metod o'zining didaktik vazifasi, ta'sir ko'lam va natijadorligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, og'zaki metodlar, kuzatish hamda tajriba metodlari o'quvchilarning bilim olish faoliyatini faollashtirishda, ularning geografik tafakkuri, tahliliy fikrlash qobiliyati va ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda asosiy o'rin tutadi. Shunday qilib, og'zaki, kuzatish va tajriba metodlarini kompleks qo'llash o'quvchilarni faqat tayyor bilim egasi emas, balki faol izlanayotgan, tahlil qiluvchi va xulosa chiqaruvchi shaxs sifatida shakllantiradi. Bu esa hozirgi ta'lim islohotlarining asosiy maqsadi bo'lgan — kompetensiyaga asoslangan ta'lim tamoyiliga to'la mos keladi. Geografiyani o'qitishda og'zaki, kuzatish va tajriba metodlarini uyg'un qo'llash nafaqat o'quvchilarning bilimini oshiradi, balki ularning hayotiy ko'nikmalarini shakllantiradi, atrof-muhitni anglash va asrashga bo'lgan mas'uliyatini kuchaytiradi. Shu bois, ushbu metodlarni har bir geografiya o'qituvchisi o'z faoliyatida tizimli, ijodkorona va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'un holda qo'llashi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduqodirov A.A. Geografiya o'qitish metodikasi. — Toshkent: "O'qituvchi", 2019.
2. To'laganova M.T. Geografiya ta'limida innovatsion texnologiyalarni qo'llash usullari. — Toshkent: "Fan va texnologiya", 2021.
3. Qo'ziyev A.Q. Umumiy geografiya o'qitish metodikasi. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2017.

4. Nishonov F.N., Shodmonov H.T. Geografiya fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar. — Toshkent: “Ilm ziyo”, 2020.

5. Jumaboyeva N.M. Tabiatshunoslik va geografiya ta’limida kuzatish va tajriba metodlari. — Samarqand: SamDU nashriyoti, 2018.

6. Ziyayeva M.B. Didaktika asoslari va ta’lim jarayonida metodlardan foydalanish. — Toshkent: “Fan”, 2016.

7. Davlatov R.M. Geografik ta’limda o‘quvchilarning ilmiy tafakkurini shakllantirish metodikasi. — Toshkent: TDPU, 2022.